

BOTIR ZOKIROV IJODIDA MILLIY VA JAHON MUSIQIY AN'ANALARINING UYG'UNLASHUVI

Mustarov Muzrob Sherzodovich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institute vokal san'ati(estrada xonandaligi) 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Botir Zokirov ijodida milliy musiqa an'analari va jahon musiqasi elementlarining uyg'unlashuvi tahlil qilinadi . San'atkorning ijodiy faoliyati misolida o'zbek estradasining shakllanishi, uning xalqona ohanglar bilan zamonaviy uslublari sintezi asosida rivojlanishi ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Botir Zokirov, milliy musiqa, jahon musiqasi, o'zbek estradasi, vokal ijrochiligi, musiqiy uslub, madaniy integratsiya, ijrochilik san'ati, musiqa madaniyati, sharq va g'arb musiqasi uyg'unligi*

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek musiqa san'ati rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda milliy musiqa an'analari jahon musiqasi bilan o'zaro ta'sirga kirishib, yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Xalqimiz musiqani avvaldan hush ko'rgan, yoqimli taronalar esa barchaning kayfiyatini birdek ko'taradi. Ba'zilar mumtoz musiqa tarafdori bo'lsa , kimdirlar esa estrada janrini eshitib qalbi yorishadi. Inson qalbiga qanday yo'l topa olish va iz qoldirish bu san'atkorning ijro mahoratiga beixtiyor bog'liqdir. Va mana shunday tinglovlicha qalbidan chuqur joy olgan ijrochlardan biri bu Botir Zokirovdir. O'zbek musiqa san'atida o'z nomini tarixga muxirlagan san'atkorlardan biri. U nafaqat o'zining betakror ovozi, balki keng qamrovli ijodiy izlanishlari bilan alohida o'rin egallaydi.

Botir Zokirov o'zbek estrada san'atiga asos slogan ijodkorlardan biri bo'lib, uning faoliyati milliy musiqa va jahon musiqasining uyg'unlashuvi jarayonida muhim bosqichni tashkil etadi.

Bugungi globallashuv davrida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib borayotgan bir paytda , Botir Zokirovning ijodi yetarlicha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki u san'at orqali turli xalqlar madaniyatini birlashtira olgan, milliy qadriyatlarni saqlagan holda jahon musiqa madaniyatiga murojat qilgan ijodkor edi.

Milliylikni saqlagan holda jahon musiqasini tadbiq qilish – bu o'zlikni anglash va umuminsoniy madaniyat bilan uyg'unlashuv jarayonidir. Bunday yondashuv milliy musiqaning boyligi va mohiyatini o'zaro anglay olish va shu bilan birga jahon musiqiy madaniyati ta'sirida uni yangi bosqichga olib chiqish. Bunday yo'nalishda ijod qiluvchi san'atkorlar orqali milliy va jahon madaniyati elementlarini uyg'unlashtirish kelajak avlod yoshlarining madaniy va badiiy didi shakllanishida muhim hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarni tadbiq qilish muhim masalalardan biri chunki aynan shu orqali millatning o'zligi an'analari, qadriyatlari saqlab qolinadi. Har bir mamlakatning o'ziga hosligi uni boshqa madaniyatlardan ajratib turadi. Milliy musiqa – bu har bir xalqning

tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlar, dunyo qarashlari va ruhiy olamini o'zida aks ettiruvchi san'at turidir. Milliy musiqa millatning boshidan nimalarni kechirgani haqida ham qisman so'zlaydi, u asrlar davomida shakllangan holda avloddan avlodga o'tib keladi va xalqning o'ziga xosligini namoyon etadi.

O'zbekistob musiqa madaniyati dunyo miqiyosida xilma-xilligi va noyoblighi bilan ajralib turadi. Farqli tomonlari shundaki musiqa nisbatan qiyinroq hisoblanadi, ya'ni maqomlar murakkab ijro asarlari sanaladi. Maqomlardagi uslublar, yuqori notalar va ularning davomiyligi boshqa madaniyatlardan o'zgacharoq. Undan tashqari raqslar har bir viloyatning o'ziga xosligini ko'rsatadi, cholg'ular ham turli- tumanligi bilan ajralib turadi.

Jahon musiqa madaniyati ham turli janrlari bilan shuhrat qozongan :klassika, jazz, pop, rok, elektron va xalq folklor musiqasi, shuningdek estrada bilan bizdan farqlanadi.

Klassik musiqa :Yevropa an'alariga asoslangan, murakkab tuzilishga ega musiqa turlaridan biri hisoblanadi. U ko'pincha yozma notalar asosida ijro etiladiva o'z ichga simfoniya, sonata, opera, balet kabi murakkab va yirik sahna asarlarini qamrab oladi. Bu musiqa turi bir necha turli davrlar asosida shakllangan va boshqa musiqa turlarining asosi hisoblanadi va ularga nisbatan keng tarqalgan.

Jazz :XIX-XX asrlarda New Orleanda turli madaniyatlar sintezi orqali paydo bo'lgan musiqa janrlaridan biri. Jazz sinkopalangan ritmika va ritmik fakturaning majmuasi. U avval xalq folklori sifatida paydo bo'lgan keyinchalik ommalashib musiqiy janr darajasiga ko'tarilgan. Jazzning aynan New Orleanda shakllanishiga asosiy sabab 1898-yilda bolib o'tkan Amerika va Ispaniya urushi bo'lgan.

Pop: XX-asr o'rtalarida shakllana boshlagan, Pop musiqa (popular music) – bu keng omma uchun mo'ljallangan yengil eshitiladigan, tez esda qoluvchi janrlardan. U dunyo bo'ylab eng ko'p tinglovchilarga ega san'at turidir. Pop : jazz, rokroll va folklore musiqa ta'sirida yuzaga kelgan.

Shuning bilan jahon musiqasi asrlar davomida shakllangan va turli janrlar, oqimlar yuzaga kelishi orqali madaniyat jadal rivojlangan.

Botir Zokirov bu ikki madaniyatlarni birlashtira olgan iste'dodli san'atkor bo'lib, u aynan shu uyg'unlashuvni keng yoritgan va o'zbek estradasiga asos solgan arboblardan biridir. U bu turli san'at turlari ortasida bog'liqlikni yaratib buni butun dunyoga tanitgan. Keyinchalik bu o'zbek esrtadasining vujudga kelishi uchun qo'yilgan ilk qadamlardan biri bo'lgan. Botir Zokirov ijodida jahon musiqa janrlari o'zbek ohanglari bilan birgalikda qo'llanilgan va sezilarli darajada aks etgan. Jumladan : estrada, pop, va jazz yo'nalishlaridan mohirona foydalanilgan. Jazz janriga xos imrovizatsiya ya'ni erkinlik uning asarlari ijrosida yaqqol sezilib turadi.

U foydalanadigan aynan shu erkinlik kuyga o'ziga xoslik va xarakter taqdim etadi va qo'shiqlarining keng tadbiq qilishda katta rol o'ynaydi. Estrada janri dunyo bo'ylab ham ommalashgani sababli xalqaro hisoblanib keng auditoriyani qamrab oladi. Botir Zokirov shuningdek jahon musiqa madaniyatining negizi hisoblangan turli tillarda kuylay olish mahoratini ham o'z ijodida namoyon etgan.

U o'zbek, arab, rus va fransuz tillarida qo'shiqlar ijro etgan, turli xalqlar musiqa madaniyatini qisman bo'lsada birlashtira olgan. U xorijiy tillarni bilgani sababli qiyinchiliklarsiz aslidek kuylay olgan.

O'zbek tilida: "Ra'no", "Umid", "Maftuningman" (kino qo'shiqlari) "Arab tangosi" qo'shiqlari uning eng mashhur asaridan hisoblanadi.

Rus va boshqa xorijiy tillarda shu mamlakat bastakor qo'shiqlarini lirik-dramatik tenor ovozi bilan o'ziga xos mahorat bilan ijro etgan.

U shuningdek 1957-yilda "Yoshlik" ansamblida faoliyat olib borgan, 1958-1970 chi yillarda O'zbekiston davlat estrada orkestri yakkaxon xonandasi bo'lgan, 1978- yildan boshlab "O'zbekkonsert" yakkaxon xonandasi sifatida ishlagan. Botir Zokirov judayam ta'sirchan tembrli ovoz sohibi hisoblanib, shirador ovozga ega. Ijro etgan qo'shiqlarini ko'p qismini teran tugallangan lirik- dramatik asar darajasiga olib chiqqan holda ijro etgan.

Repertuaridagi qator qo'shiqlar Botir Zokirovning ovoz imkoniyatlariga qarab kompozitorlar tomonidan hamkorlikda yozilgan. Uning ijodida o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari muhim o'rin egallagan. Jumladan Mutal Burxonovning – Maftun bo'ldim", "Namedonam, chi nom dorad", I. Akbarovning – "Yor kel", "Ra'no", "Gazli", "Seni eslayman", Enmark Solihovning "Umid" va shuningdek ertada uslubida qayta ishkangan hind qo'shiqlarini ham ijro etgan, uning eng mashhur qo'shiqlaridan biri "Arabcha tango" hisoblanadi

Misol tariqasida xonandaning "Umid" qo'shig'ini keltirishmiz mumkin.

Milliylik aks etgan tomonlari

Melodik jihatdan ohanglari ya'ni qo'shiqning kuy chizig'i

Sharqona (o'zbekcha) ohangga yaqin, melodiya cho'zilgan "yig'i" ga o'xshash ohanglar mavjud,

U ayrim joylarda ovozni "titratib" ichki kechinma bilan kuylaydi, so'zlarning cho'zib ijro etilishi ma'noni yanada chuqurlashtiradi – bu aynan o'zbek maqomlari va an'anaviy ashula uslubiga yaqin.

Qo'shiq sekin boshlanib, sekin kuchayib boradi va bu uslub aynan o'zbek milliy lirik qo'shiqlarda ommalashgan.

Musiqa matni ham aynan umid, sabr, ichki kurash- Sharq falsafasiga xos mazvular hisoblanadi.

Jahon musiqasiga xos jihatlari

Aranjirovka (musiqiy bezak) ya'ni orqa fonda estrada uslubidagi orkestr yoki zamonaviy cholg'ular ishlatiladi – bu g'arb estradasiga xoslikni ifodalaydi.

Qo'shiq tuzilishi (forma) ya'ni qo'shiq matni kuplet va refren (qaytarma) shaklida – bu pop/estrada janrining klassik tuzilish shakli.

Ayrim joylar Yervopa vokal uslublariga xos ochiq sahnaviy va keng diapazonlar kuylanadi.

Eng asosiy jihatlaridan biri bu ritm va temp, juda erkin bo'lmagan tartibli va barqaror ritmika.

Dramaturgiya ya'ni : boshlanish – cho'qqi – yakun bu jahon sahna madaniyatiga mos keluvchi ta'sir

Uyg'unlik

Jahon ritmikasi asosida milliy ohanglarning yangrashi

Lirik so'z matni va dramaturgiya joylashuvi

Sharqona hissiyotlar va Yevropa vocal texnikasining foydalanishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Botir Zokirov nafaqat o'zbek musiqa san'atining rivojiga hissa qo'shgan, balki o'zbek mumtoz musiqasini jahon standartlariga moslab uni xalqaro cho'qqiga olib chiqqan san'atkor.

U noyob iste'dod sohibi bo'lgan va o'z ijodiy faoliyati davomida muxlislari va butun dunyo madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Botir Zokirov hayoti va ijodi haqida maqolalar to'plami -Toshkent.
2. O'zbek musiqa tarixi – Toshkent: fan nashriyoti.
3. O'zbek musiqas tarixi – Toshkent fan nashriyoti.
4. Jahon musiqa madaniyati - Toshkent